

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.A.Ganiyeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi kelasi zamon shakllarining polifunksionalligi	6
G.S.Mirzayeva	
Lingvokulturmalar adabiy matnni ochib beruvchi kalit sifatida	10
S.N.Fazildinova	
The use of hyperbole in Alisher Navoi's works	14
Sh.T.Axmadjonova	
O'zbek tilshunosligida nutq uslublarining o'rganilish talqini	17
D.S.Usmonova	
Exploring values through phraseological units: a study of axiology in language	20
D.S.Usmonova, K.U.Davlyatova	
Gender features of children's animation and emerging translation challenges	24
N.R.Maxmudova	
O'zbek va jahon tilshunosligida ornitonimlarning o'rganilishi xususida	28
M.Saminjonov	
Rasmiy-jamoaviy qasamlar	31
I.M.Jo'rayev	
Qadimiy qadriyatlar	37
D.R.Ubaydullayeva	
Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemalarning struktural-semantik jihatlari qiyosiy tadqiqi	41
N.Q.Adamboeva	
Ingliz tili badiiy asarlaridagi xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari	49
Z.M.Dadahonova	
Components of knowledge control	53
L.Teshebayeva	
O'zbek va ingliz ertaklarida mifonim va spellonimlar	56
Ш.М.Артикова	
Интегральные и дифференциальные признаки тавтологии и плеоназма	60
M.M.Nurmatova	
Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida	66
S.I.Quziyev	
Oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning xususiyatlari	70
T.Z.Ismonova	
Problems and solutions of grammar translation method	76
N.A.Komilova	
Zamonaviy tilshunoslikda gender nazariyasi asoslari	80
D.X.Madazizova	
The significance of text and discourse in enhancing communicative competence	83
S.A.Yusupova	
Morphemic units expressing honour in different system languages	86
N.Sidikova	
Stevan Sveygning "Noma'lum ayol maktubi" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri	91
Sh.X.Nuritdinova	
Nemis va o'zbek tillarida kelishik kategoriyasi tipologiyasi	94
N.K.Abbasova, N.A.Abdullaeva	
Semantic analysis of english phrasal verbs	98
B.A.Mukhtorova	
The "Concept" in linguistics	102
R.A.Ortiqov	
Ulug'bek hamdamning "Ota" asaridagi monologlar tahlili	106
Sh.O.Abdiloyev	
Zoonim frazeologizmlar xalq tarixi va madaniyati in'ikosi	110

RASMIY-JAMOAVIY QASAMLAR

ОФИЦИАЛЬНЫЕ КОЛЛЕКТИВНЫЕ ПРИСЯГИ

OFFICIAL COLLECTIVE OATHS OF OFFICE

Saminjonov Muxammadali¹¹Farg'ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti ingliz tili kafedrası o'qituvchisi**Annotatsiya**

Maqolada rasmiy-jamoaviy soha qasamlari va ularni ishlatilishi, asarlarda qasamyodlarni qo'llanilishi, o'zbek asarlaridagi soha qasamlarining matnlardagi ishlatilishiga misollar, asarlardan olingan parchalar ularni qo'llanilish jarayonlari, olimlarning fikrlari, nutqiy akt turlari va ularning tasnifi, xalqona qasamlarda u yoki bu xalqning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari aks etirilishi, bu xususiyatlar har bir xalqning dini, madaniyati, turmush tarzi, an'ana va urf-odatlarini orqali namoyon bo'lishi, yapon xalqi urf-odatiga ko'ra qasam ichmoqchi bo'lgan kishi qasam matnini qog'ozga yozib, uni kuydirib, kulini ichish tarzida amalga oshirilishi misollar bilan yoritib o'tilgan.

Аннотация

В статье должностно-общественные клятвы и их использование, использование ругательств в произведениях, примеры использования клятвы Сиха в узбекских произведениях, выдержки из произведений, процессы их использования, мнения ученых, виды речевых действий их классификация, в народных клятвах отражаются или уникальные национально-культурные особенности этой нации, эти особенности проявляются через религию, культуру, образ жизни, традиции и обычаи каждой нации, и японцы хотят принести присягу согласно традиции. На примерах поясняется, что умерший пишет текст клятвы на бумаге, сжигает его и пьет пепел.

Abstract

In the article official-community oaths and their use, the use of oaths in works, examples of the use of Siha oaths in Uzbek works, excerpts from works, the processes of their use, the opinions of scientists, types of speech acts and their classification, in folk oaths or the unique national-cultural characteristics of this nation are reflected, these characteristics are manifested through the religion, culture, lifestyle, traditions and customs of each nation, and the Japanese people want to take an oath according to the tradition. It is explained with examples that the person who died writes the text of the oath on paper, burns it and drinks its ashes.

Kalit so'zlar: soha, qasam, ont ichish, saltanat, asar, dedektiv, himoya, lingvistika, tilshunoslik, rasmiy, jamoa, matn, dialog, nutq.

Ключевые слова: поле, присяга, клятва, королевство, работа, сыщик, защита, языкознание, языкознание, должностное лицо, коллектив, текст, диалог, речь.

Key words: field, oath, swearing, kingdom, work, detective, defense, linguistics, linguistics, official, team, text, dialogue, speech.

KIRISH

Xalqona qasamlar nutq jarayonida reallashadi. Kommunikativ jarayonda voqelanadigan har qanday nutqiy faoliyat tahlilida so'zlovchining maqsadi, istagi bilan bog'liq tomonlari inobatga olinadi. Ana shunday tahlil intensional tahlil de-yiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Intensional tahlilda ham lisoniy, ham nolisoniy xususiyatlar aniqlanadi. Demak, nutqiy akt mazmuniy lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan tashkil topadi. Tilshunos olim Sh.Safarov aytganiday, nutqiy akt uch bosqichli bo'ladi:

1. Lokutiv akt – muloqot jarayonida mazmundor lisoniy kalimani yaratib va talaffuz qilib, nutqiy faoliyat ijrosi lokutsiya yoki lokutiv akt. "Issiq choy damladim" xabar, taklif, qanday choy ichishini bilish kommunikativ istak. So'zlash nutqi.

2. Illokutiv akt – nutqiy jarayonda va nutqiy faoliyat vositasida bajariladigan harakat. So'zlovchi niyati.

3. Perlokutiv akt – nutqiy faoliyatning ta'sir o'tkazish bosqichi. Ta'sir etish.

Demak, avvalida nutq so'zlanadi, unga turli vositalar qo'llash harakati bilan so'zlovchi niyati aniqlanadi, so'nggida ta'sir etish bosqichga o'tiladi.

Ifodaning mazmuniy tarkibi so'zlovchining "men"ligi bilan bog'liq holda semiologik tuzilishiga ko'ra to'rt darajaga ajratiladi:

1. So'zlash nutqi (lokutsiya).

2. Hukm (propozitsiya).

3. So'zlovchi niyati (illokutsiya).
4. Yakuniy ta'sir etish (perlokutsiya).

Masalan, *Otajon, pok ruhingiz haqqi-hurmati, qotilingizdan qaqshatgich qasos olaman* (Said Ravshan. Ajal o'yini, 64-bet).

Nutqiy faoliyat ijrosi, ya'ni shu qasam matni so'zlash nutqi (lokutsiya) bo'ladi. Hukm esa qotillik yuz berganligi (propozitsiya). Pok ruhi hurmati so'zlovchi niyati (illokutsiya). Qaqshatgich qasos olish yakuniy ta'sir etish (perlokutsiya).

Xalqona qasamlarda u yoki bu xalqning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari aks etadi. Bu xususiyatlar har bir xalqning dini, madaniyati, turmush tarzi, an'ana va urf-odatlarini orqali namoyon bo'ladi. Masalan, yapon xalqi urf-odatiga ko'ra qasam ichmoqchi bo'lgan kishi qasam matnini qog'ozga yozib, uni kuydirib, kulini ichish tarzida amalga oshiriladi. Yoki lo'lilarda qasam ichishda, albatta, qon chiqarish shart hisoblanadi. Rus xalqida qo'lni ko'tarib qasam ichiladi. O'zbek xalqida esa, asosan, Xudo, muqaddas kitob – Qur'on haqqiga qasam ichish mavjud. Bundan tashqari, nonning ta'sir kuchiga ishonish (*non ursin*), ajdodlar ruhi bilan (*Oppoqxo'jam ursin*) yoki mozor, ziyoratgohlar ta'sir kuchiga ishonish kabi qasam turlari ham bor. Ko'rinadiki, qasam ichuvchining butun xatti-harakatida animistik, magik, tabiat va ajdodlarga sig'inish kabi turli diniy e'tiqodlarning elementlari ham muhim o'rin egallaydi. Shunga ko'ra, xalqona qasamlarning tematikasini yoritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xalqona qasamlar tematik jihatdan quyidagi 4 turga bo'linadi:

1. Alloh va Qur'on nomi bilan aytiladigan qasamlar.
2. Biror narsaning haqqi bilan aytiladigan qasamlar.
3. Lokal belgiga ega qasamlar.
4. Personal belgiga ega qasamlar.

1. Alloh va Qur'on nomi bilan aytiladigan qasamlar – mazmun jihatdan kuchli hisoblanib, bunday qasam ichgan inson o'z qasamiga sodiq qolishi shartdir. Ammo Islom dinida Alloh yoki Qur'on bilan qasam ichish noo'rin ekani ta'kidlanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Qur'oni Karim suralarida keltirilgan qasamlar Alloh taologagina xosdir. Shunday bo'lsa-da, og'zaki nutqda bunday qasamlar ko'plab uchraydi. Iordaniyalik tadqiqotchi Huseyn Almutlaq qasamyod nutqiy janri atamalarining sotsiologik xususiyatlarini o'rganish jarayonida ushbu xalqning so'zlashuv uslubiga xos qasamyodlarda eng ko'p qo'llanuvchi so'zlar sifatida diniy burchlarni anglatuvchi *salavot, haj, zakot, ro'zai ramazon, Umra* kabilarni qayd etadi. Iroqlik tarixchi Javod Alining fikricha, Alloh Islom arafasida tavhid g'oyasiga e'tiqod qilgan arablarning maxsus xudosi bo'lgan. "Alloh" so'zi deyarli barcha johiliya shoirlarining asarlarida va aksariyat hollarda qasam iboralarida uchraydi. Demak, diniy tushunchalarning mohiyatini bilmay turib, qasamyod mohiyatini ochib berish qiyin. Bu qasamlarni hazillashib yoki biror narsadan qutulish uchun aytilmaydi. Odatda, dinga e'tiqod qiluvchilar orasida diniy qasamyodlar muhim hisoblanadi, qasamyodni buzish esa og'ir gunoh deb qaraladi.

NATIJALAR

O'zbek lingvomadaniyatida ham qadimda qasamyodga xiyonat uchun Islom dinida maxsus shar'iy jazolar tayinlanganligi haqida ayrim ma'lumotlar uchraydi. Albatta, bu o'sha so'zlovchi va tinglovchi yashayotgan jamiyatning turmush tarzi, e'tiqodi bilan bog'liqdir. Masalan, o'zbek lingvomadaniyatida ota-ona nomini o'rtaga qo'yib, qasam ichish eng og'ir qasam hisoblanadi. Negaki, islomda ota-onalarning nomi bilan qasam ichish mumkin emas. Vaziyat taqozo qilgan vaqtdagina, boshqa iloj qolmaganda Alloh va Qur'on nomi bilan qasam ichiladi. Masalan: *"Musulmonmisiz?" – "Man musulmon. Qur'on bering, yuzimni qo'yib ont ichaman"*. *Uch to'rt kun burun Xumor degan qiz minan biznikiga kelishuvdi. Xudo haqqi, sening singling ekanligini men bugun bilib oldim*. Qadimda ham kishilar so'zlariga yoki harakatiga ishonirish maqsadida Xudo nomi bilan qasam ichishgan. Masalan: – *Axir quloq-burnimni yaqindagina kesilgani ko'rinib turibdi-ku! Biznikilar bekorga o'z urug'lariga bunday sitam yetkazmaydilar. U o'ylab qo'ygani dalillarni keltirib, uzundan-uzoq gapirdi va o'zining Eron shohiga sodiqligini, shakllarga dushman ekanligini isbot qilishga tirishdi, so'zining oxirida Quyosh tangrisini shafe keltirib ont ichdi*.

Ko'rinadiki, dastlab, Shiroq nutqida ishonirish harakati *menga ishonavering* qolipi orqali ifodalangan. Lekin so'zlovchi keyingi gapida *"Quyosh tangrisini shafe keltiri, ont ichadi"*, ayni jumlar matnini qasamyod nutqiy janri sathiga olib chiqilgan.

Siparagiz ikkilanib qoldi, keyin: – Hoy, chol, – dedi asir eroniyga qarab.

– Boshing uchun rost so'yla, ovqat va sharoblarga zahar solingan emasmi?

– O‘zimiz yemoqchi bo‘lgan ovqatga nega zahar solaylik? Nima, o‘zimizga o‘zimiz dushmanmizmi? Barcha xudolarning xudosi Ahuramazdani shafe keltirib qasamyod etamanki, biz bu noz-ne‘matlarga zahri qotil solganimiz yo‘q....

Ushbu misolda ishontirish harakati ritorik savollar bilan boshlanadi. “O‘zimiz yemoqchi bo‘lgan ovqatga nega zahar solaylik?”, “Nima, o‘zimizga o‘zimiz dushmanmizmi?” degan savollarga javob o‘z-o‘zidan “yo‘q” – inkor bo‘ladi. Oxirida esa barcha xudolarning xudosi Ahuramazda nomi bilan qasamyod qilinmoqda. Demak, bu holatda ham qasamyod nutqiy janri namoyon bo‘lmoqda.

– Qasam ich, – dedi endi chol ko‘zimga tik qarab.

– Ishqilib yaxshi narsami? Bilmaydigan narsamga qasam ichib, boshimni changallab qolmayin tag‘in.

– Qo‘rqma, senga ziyoni tegmaydi. Qasam ich! Nima bo‘lsa bo‘ldi, deya hayolimdan o‘tkazdim-u, qasam ichib yubordim. Shunda ham chol ko‘nmadi.

– “Oilangni o‘rtaga qo‘yib qasam ichasan!”, – deb turib oldi.

“Oilamni aralashtirmang, Men o‘zim uchun ont ichaman. Va‘da berdimmi, ustidan chiqaman!” desam ham ko‘nmaydi. Bir xayol: “Bor-e, pul-muling kerakmas”, – deb ketvoray dedim. Lekin cholning avzoyi borgan sari o‘zgarib, odamning rahmini keltirar, qo‘l siltab ketishga botinolmay qoladigan darajaga yetgan edi. Oxiri bo‘lmadi. Ichimdan zil ketib, qasam ichdim. Endi bo‘ldi, chol gapini aytar desam, qayoqda, bir qo‘limga nonni, ikkinchi qo‘limga bir kitob ushlatib:

– “Bu Qur‘oni Karim bo‘ladi. Hozir bu kitob hammadayam bor emas...”

Endi ont ich. Keyin men ishonaman, – dedi o‘jar chol.

– Agar gapimda turmasam, mana shu Qur‘on ursin, – dedim sabrim chidamay.

Ushbu misolda qasamyod nutqiy janri uch darajada reallashmoqda.

Birinchi darajada, tavakkalga “nima bo‘lsa bo‘ldi”, – deya hayolidan o‘tkazib qasam ichilmoqda. Ikkinchi darajada, oilani o‘rtaga qo‘yib, “ichidan zil ketib” qasam ichilmoqda. Uchinchi darajada esa, ichilgan qasamga ham, oilasini o‘rtaga qo‘yib ichilgan qasamga ham ishonmagan o‘jar chol Qur‘on va non ushlatib qasam ichishga majbur qilmoqda. Ushbu holatda yuqoridagi boshqa misollardan farqli ravishda qasam majburlash orqali amalga oshirilmoqda. Demak, tashqi qasamlar vaziyatdan kelib chiqib, o‘z xohishi yoki majburlash orqali yuzaga chiqadi. Tashqi qasam bilan ichki qasamning yana bir farqi shundan kelib chiqadi, ichki qasam ichishga majbur qilinmaydi. Majburlash orqali faqat tashqi qasamda reallashadi, majburlagan kishi qasamni o‘z qulog‘i bilan eshitishi shart bo‘ladi.

Yozuvchilar asar qahramonlarining karakterlarini yoritishda qasamlardan keng foydalanadi. Jumladan, A.Qodiriy Toshpo‘lat tajang obrazini yaratishda “Xudo haqqi” qasamidan mohirona foydalangan. “Xudo haqqi” qasamning “Xudoy haqqi” variantida qo‘llanishi ham qahramonning soddaligi, oddiy xalq vakili ekanligini ko‘rsatadi. Uni tajang qilgan o‘sha zamon ekanligi, bo‘layotgan voqealarga tushunmay, miyasi qotayotgani, xalqning ahvoliga yuragi achishi, Allohdan bo‘lak tayanchi yo‘qligini ko‘rsatib bergan. Buni Abdulla Qodiriyning “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” nomli asaridan keltirilgan quyidagi misollar bilan dalillaymiz:

– Bu nima o‘zi? Xudoy haqqi tushunsam ... (17-bet).

– Man na fuqarongga qo-yil va na hukumatingga, xudoy haqqi, miyam qotdi! (17-bet).

Choyxonada bir piyola choyni shopirib o‘tirsam bir kampir: “Bolam och”,

– deydi, – qizim kasal, erim o‘lgan, – deydi. Yig‘i-sig‘i, xudoy haqqi, yuraging achiydi (17-bet).

“Xudoy haqqi, bebaraka o‘g‘irlig‘ing jonga tegdi” (17-bet). “Rostini aytaymi, Matiqulinga poshsholig‘ing yer barsa paqqos kuydi, xudoy haqqi, kuydi” (18-bet).

“Tunov kuni ko‘rib, xudoy haqqi, rahmim keldi” (19-bet). “Xudoy haqqi, to‘rt tomondan turib tomosha qilibman” (22-bet). “Poshsholig‘ing shoyi ko‘ylakka, deb besh so‘lkavoyini uzatdimi, simint Toshpo‘lot akangni unutasan, xudoy haqqi, unutasan!” (24-bet). “Xudoy haqqi, kulgim qistab, gavrligim tutdi” (25-bet). “Salim so‘taging tom suvoq qilgan ekan, kecha hasharga borgan edim, xudoy haqqi, shu xumsangni ham kosasi oqarmay ketyapti!” (26-bet). “Xudoy haqqi, avzoyim buzilib, kuprligim oshdi (28-bet).

Toshpo‘lat tajang nutqida “Xudoy haqqi” qasamining takror-takror ishlatilishi uning to‘g‘riso‘zligi, o‘z fikrini ochiq aytishini yoritishga xizmat qilmoqda.

2. Biror narsaning haqqi bilan aytiladigan qasamlar ham nutqda ko'p uchraydi. Bular Alloh va Qur'on nomi bilan ichilgan qasamlarga nisbatan kuchsizroq bo'lsa-da, agar qasamga sodiq bo'lmasa, nimadandir voz kechishga to'g'ri keladi. Bunda – qon haqqiga, qarindoshlik haqqiga, o'z joni haqqiga, o'z tana a'zolari haqqiga va boshqalar hisobiga qasam ichiladi. Masalan:

– *Lekin, aka, yana bitta gap, — deb u cho'ntagidan pichoq chiqarib, kaftiga botirdi. Pichoq izidan sizib chiqayotgan qonni ko'rgan yigitlarning ko'zlari olayib ketdi.*

– *Mana shu qonim haqqi hurmati, - dedi Samandar o'zini mag'rur tutib,-men sizga ikki dunyoda ham xiyonat qilmayman! Men har doim sizga sodiqman!*

Yigit yuzini pichoq bilan kesi, qonini chiqardi-da:

– *Bu sizga bo'lgan sadoqatim belgisi,- dedi.*

– *Mana, oka, birinchi isbot, – deya Soli kaftiga qo'lidagi pichog'ini tig'iga botirdi. Zumda pichoqning izidan qon sizib chiqdi. – Mana shu qonim haqqi hurmati, men sizga sodiq xizmat qilaman. Xuddi boyagiday ahvolda Soli yigitlarini u bilan tanishtirib chiqdi. Keyin hamma yigitlarning baravariga boshlari egildi. Bu itoatkorlik belgisi edi. Bir paytlar Qora dev: “Agar sening oldingda boshqalar boshini egsa, demak, sening tobeligingni bildiradi. Eng muqaddas an'anaga shu paytgacha hech kim xiyonat qilmagan”, – degandi. Ikrom qarshisidagilarni turishlaridan bildiki, birortasi ham Abdulhamidga tegishli emas. Balki salom-alik*

qilib yuradiganlari bordir. Biroq uning xizmatini qilmaydi.

– *Rahmat, — dedi yayrab ketgan Ikrom,- men ham bir umr sizlarga sodiq qolishga va'da beraman!*

MUHOKAMA

Ushbu misolda qasamga sodiqlik belgisi sifatida qon ishlatilgan. “Qon” belgisi, nafaqat, o'zbek millatida, balki juda ko'p xalqlarda sadoqat belgisi bo'lib xizmat qiladi. Ikromjonning qasamidan ko'rinadiki, qasam faqat biror narsadan norozi bo'lganda yoki g'azablanganda emas, biror narsadan ko'ngli to'lganda, xursand bo'lganda ham ishlatilar ekan. Qon haqqi bilan ichilgan qasamlar, asosan, erkak kishilarga xos. Ayollar qon haqqi bilan qasam ichishi haqiqatdan uzoqdir. Ko'rinadiki, qasamlarda ham gender (jinsiy) xoslanish mavjuddir. Qarindoshlik haqqi bilan qasam ichilganda turli darajadagi qarindoshliklar: otasi, bolasi va boshqa oila a'zolari haqqiga qasam ichiladi. Masalan:

– *Alloh haqqi, qarindoshlik haqqi, urma, ey, Ali... Havoga ko'tarilgan qilich bu safar sekin pastga tushdi. Hazrati Ali orqasiga qaytib, safga qo'shildi.*

– *Nega qilich solmading, ey, Ali?*

– *U Alloh haqqi va qarindoshlik haqqiga qasam ichdi. Boshqa qo'l ko'tara olmasdim. Bu misolda “Alloh” bilan birga “qarindoshlik haqqi” yuzasidan qasam ichilgani uchun kuchli qasamlarga aylangan, shu sababdan Hazrati Ali ham havoga ko'tarilgan qilichni pastga tushiradi.*

– *Qaynotangizni uyga qo'ymayman, degan gapida jon bor. Men ham uning fikriga qo'shilaman. Lekin eringizga ham qo-yil qoldim. Kechirimli ekan. **Bolalaringiz hurmati, uyga kirgizmoqchi.** (A.Turg'unov, M.Azimova. Bilmayin bosdim tikonni. 59-bet) Ushbu misolda “bolangiz haqqi hurmati” qasami onaning bolasini o'rtaga qo'yib qasam ichishi ham bu qasamning kuchli ta'sirga ega ekanligini bildiradi.*

– *“Boy, kambag'al, mulla, eshon demasdan hammaning bolasiga bir tekis qaralsa, otamga la'nat o'g'limni yubormasam...”. Bu misolda so'zlovchi agar shart bajarilsa, otasini o'rtaga qo'yib o'g'lini yuborishi haqida qasam ichyapti. Demak, qasamga shart bajarilsagina sodiq bo'ladi, shart bajarilmasa, qasam ham o'z kuchini yo'qotadi.*

– *O'g'irlik mollar-chi? Undan qanchasi tekkandi senga? – tutaqib o'shqirdi yana Sodiq.*

– *Xoh ishon, xoh ishonma, men bor gapni aytdim, – dedi bazo'r chaynalib.*

– *O'g'irlik qanday yuz berganini, keyin nima gap bo'lganini qarindoshing Qoraxondan, o'shanda uning jinoyatini yashirgan Duldulovdan so'rab bil! Men ikkisini ham yoqtirmas edim. Yolg'on aytayotgan bo'lsam, yolg'iz farzandimga ota bo'lmay... Bu misolda ham yolg'iz farzand haqqiga qasam ichilmoqda. Aniqrog'i, ota bo'lmay deganda, yolg'iz farzandi yetim bo'lib qolishi nazarda tutilmoqda.*

Ba'zi qasamlarda inson tana a'zolari haqqiga ham ichiladigan turlari mavjud. Masalan:

– *Yo'q... yo'q, oyijon, undan ko'ra men o'lay, bir marta bunday ishni qildim, ikkinchi marta... ko'zim ko'r, oyoqlarim shol bo'lib qolsin... Sizning aytganingiz bo'ladi... Nima desangiz hammasiga*

roziman. Ushbu misolda esa ko'zim ko'r, oyoqlarim shol bo'lib qolsin... deb qasam ichilmoqda, qasam ichayotgan odam tanasining a'zolari evaziga ishontirishga harakat qilmoqda. O'z joni haqqi bilan ichiladigan qasam turlari ham mavjud bo'lib, ularda so'zlovchi o'z joni haqqiga ishontirishga harakat qiladi. Masalan:

– *Yana tekinga-ya, ishtahang ochilib ketyaptimi?!*

– *Qarz bo'lsam, jonim garovda!*. Bu misolda ham jonni garovga qo'yib, joni evaziga qarz olish niyatida qasam ichilmoqda. Ayni shu “jonim garovda” vositasi qasamni shakllantirmoqda.

– *Qalay? – dedi Mavlon tirjayib, ular bir oz yurganlaridan keyin.*

– *Boplabmanmi?!*

– *Lekin, xo'jayin gap yo'q. O'lib ketay, agar gramm tanigan bo'lsam, – dedi Po'lat ham iljayib, ko'zgu orqali xo'jayiniga qarab olarkan.*

Misolda ishlatilgan “o'lib ketay” jumlasini qasamni shakllantiruvchi vosita erkaklarga nisbatan ayollarda ko'proq uchraydi. Ko'p gapirishni, ko'pirtirib gapirishni yaxshi ko'radigan ayollar o'z so'zlariga ishontirish uchun “O'lay agar yolg'on bo'lsa” yoki “til tortmay o'lay” jumllaridan ko'p foydalanadilar. Masalan:

– *Ikrom aka! Akajon, til tortmay o'lay, birorta erkakning yaqiniga yo'llagan bo'lsam....*

Bu qasam turlarida o'z joni haqqiga ishontirish harakati mavjud. Qasamning bu turi qisqartirib ham ishlatiladi:

– *Bekorga uvolimga qolasiz. Me-men, – Rinat bazo'r chaynalib, – uning qayerdaligini, o'layki, bilmayman.* Ba'zan odamiylik, erkaklik sha'ni haqqiga ham qasam ichadilar. Ular turli-tuman bo'lib, asosan, erkak kishilarga xosdir. Masalan:

– *Hozir o'l desang o'laman. Nima desang hammasiga roziman!*

– *Nima bilan va'da berasiz?*

– *Aytganingni bajarmasam, yubka kiyib yuraman.* Mazkur matnda erkaklik sha'niga qasam ichilmoqda, ma'lumki, yubkani erkaklar kiymaydi, ayollar kiyimini erkaklarga kiydirishi bu haqoratdir.

– *Sal o'pkangni bosib gapir, – dedi haydovchi achchiqlanib. – Nima, bu dunyoda bitta sen erkakmisan? Bor, gaplash, olib o't! Pulingni ikki hissa qilib qaytarmasam, itning bolasi bo'lay!*

Haydovchi agar aytgan shartini bajarmasa, odamgarchilikdan chiqib ketishini, “itning bolasi” bo'lish bilan teng ekani aytilmoqda. Demak, biror narsaning haqqiga ichilgan qasamlarning taxminan quyidagi turlari aniqlandi:

- 1) qon haqqiga qasam;
- 2) qarindoshlik haqqiga qasam;
- 3) tana a'zolari haqqiga qasam;
- 4) o'z joni haqqiga qasam;
- 5) odamiylik va erkaklik sha'ni haqqiga qasam.

3. Lokal belgiga ega qasamlar biror ziyoratgohda yoki qabristonlarda o'sha yerdagi ulug' kishilar madadiga suyanib, qasam ichadilar. Bunday qasamlar lokallik belgisiga ega bo'ladi. Masalan: *“Udan ato” ziyoratgohida Amir Muso, Zindachashm va Xizrning o'g'li kengashib, ahdu paymon qildilar.*

Amir Husayn Amir Sohibqiron bilan uchrashib, zafarnishon lashkar bilan Xuzor tomonga ketdilar. Xo'ja Razmoz mozorida uning ruhidan madad tilab, ahdu paymonini yangiladilar.

Ikki kun turg'andin so'ng bir-birina inona bilmay hazrat Pahlavonning mozorlarina borib qur'ondin ont ichdilar.

Misollardan ko'rinadiki, bu kabi qasamlar ishonch hosil qilish maqsadida qilinadi. Lokallik belgisiga ega qasamlarning o'ziga xosligi shundaki, ular har ikki tomonlama, ayni bir paytda amalga oshiriladi.

4. Personal belgiga ega qasamlar ma'lum shaxs nomi bilan amalga oshiriladi. Masalan: – *Qorinda hech nima qolmadi. Yo'lchi polvon, xotintaloq Yormating bizni o'ldirmoqchi, shekilli. Pirimning haqqi, shu keldi-yu, oshdan, nondan baraka ketdi.*

– *Hay, piring Hazrati Dovud haqqiga bir nafas shu taqir-tuqurni bas qill!*

Bu misollarda avliyo insonlar haqqiga qasam ichilmoqda. Bunday qasamlar, nafaqat, avliyolar haqqiga, balki eng qadrdon insonlar nomi bilan ham aytilishi mumkin. Masalan:

– *Rahmatli otang bilan juda qadrdon edim. Uning haqqi hurmati, insof qil, bolam.*

XULOSA

O'zbek xalqi dunyoda o'z ma'naviyati va madaniyati yuksak bo'lgan turkiy xalqlarning biri sifatida tildan foydalanishda ham qadimiy an'analar, odat va ko'nikmalarga tayanadi. O'zining boy tarixi va o'tmishi, havas qilsa va namuna olsa arzigulik ma'naviy-madaniy merosga ega bo'lgan o'zbek xalqining muloqot an'analari, nafaqat, mazmunan, balki shaklan ham rang-barangdir. Sharq madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan bu muloqot o'zbeklar bilan yonma-yon yashab kelayotgan boshqa xalqlar madaniyati bilan uyg'un, ayni paytda o'ziga xosdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдлик. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
2. Ойбек. Қутлуғ қон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1966. – Б. 263.
3. Тоҳир Малик. Шайтанат. 3 китоб. – Тошкент: Шарқ, 2019.
5. Ҳотамов А. Эрка қизнинг қисмати. – Тошкент, 2005.
6. Shakespeare V. The Story of Hamlet, 20.
7. Исмоилов Н. Омонат ғор сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006.
8. Саид Равшан. Тунги чинқирик. Қиссалар, ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2005.
9. Ҳошимов. Н. Эр либосли аёл. – Тошкент, 2009.
10. Исмоилов Н. Иблис салтанати. Саргузашт-детектив роман. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
11. Исмоилов Н. Бургут тоғда улғаяди. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007.
12. Нурмонова С. Ўзбек тилидаги қасам нутқий жанрининг лингвомаданий тадқиқи. Фил.ф б-ча фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Андижон, 2022.
13. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
14. Ҳасанов А. Қадимги Арабистон ва илк Ислом. Тошкент: Тошкент ислом университети. 2001.
15. Усмонов М. “Авесто” қасам ҳақида // Тошкент оқшоми. 8 октябрь. – Тошкент, 1999; Алоуддин Мансур. Ал-Қуръон Ал-Карим маъноларининг таржимаси ва шарҳлар. – Тошкент: Фан, 2002. –Б. 49 .
16. Исмоилов Н. Иблис салтанати. Саргузашт-детектив роман. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
17. Исмоилов Н. Иблис салтанати. Саргузашт-детектив роман. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
18. Исмоилов Н. Иблис салтанати. Саргузашт-детектив роман. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
19. Исмоилов Н. Омонат ғор сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006.
20. Саид Равшан. Тунги чинқирик. Қиссалар, ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2005.
21. Исмоилов Н. Иблис салтанати. Саргузашт-детектив роман. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
22. Ойбек. Қутлуғ қон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1966.